

**Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fakulteti adabiyotdshunoslik kafedراسي
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) G.Oripova
taqrizi ostida**

**Sayidolimov J.
FarDU, Adabiyotshunoslik kafedراسي
o‘qituvchisi
Azimjonova Farangiz Quadratjon qizi
FarDu filologiya fakulteti 2-kurs talabasi**

O‘ZBEK ADABIYOTIDA ABU BAKR SIDDIQ OBRAZINING YORITILISHI

(“Lison ut-tayr” va “Tarixi Muhammadiy” asarlari misolida)

Annotatsiya: Mazkur maqolada obraz yaratish va u bilan bog‘liq nazariy fikrlar haqidagi qarashlar bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda mumtoz adabiyotimizda chahoriyorlar obrazining yaratilishi hamda uning o‘ziga xosligi, voqea-hodisalarning badiiy usulda obrazlilikka asoslangan holda bayon etilishi bilan bog‘liq lavhalar “Lison ut-tayr” va “Tarixi Muhammadiy” asarlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Obraz, obrazlilik, mumtoz adabiyot, sahoba, chahoriyorlar, xulafoyi roshidin, badiiylik.

ОСВЕЩЕНИЕ ОБРАЗА АБУ БАКРА СИДДИКА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

(На примере произведений “Лисон ут-Тайр” и “Тарих Мухаммади”)

Аннотация: В этой статье изложены взгляды на создание образа и связанные с ним теоретические соображения. Наряду с этим, в нашей классической литературе представлены отрывки, связанные с созданием образа чahорийора и его самобытностью, художественным повествованием событий, основанным на образности, на основе произведений “Лисон ут-Тайр” и “Тарих Мухаммади”.

Ключевые слова: Образ, образность, классическая литература, сподвижники, чahариоры, хулафойи Рашидин, артистизм.

COVERAGE OF THE IMAGE OF ABU BAKR SIDDIQ IN UZBEK LITERATURE

(On the example of “Lison ut-tayr” and “History Muhammadi”).

Annotation: This article describes views on the creation of an image and related theoretical ideas. At the same time, in our classical literature, plaques related to the creation of the image of the chahoriyars and its uniqueness, the exposition of events in an artistic way based on imagery are covered on the basis of the works “Lison ut-tayr” and “History Muhammadi”.

Key words: Image, figurative, classical literature, sahoba, chahoriyor, khulafoyi roshidin, artistry.

Yo‘l yomon-u yaxshidin chekmagil g‘am,

Bismilloh degin-u tashlagil qadam

(A.Navoiy)

Badiiy adabiyotda obraz yaratish ijodkor mahoratini belgilash barobarida asar saviyasini va kitobxon tomonidan qabul qilinishini ham belgilab beradi. Shu sababli obraz-adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Lug'aviy ma'nosida har qanday aksni bildiruvchi "obraz" so'zi turli fan sohalarida muayyan terminologik ma'noda qo'llanadi. Badiiy obraz deganda borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi anglanadi. Badiiy obraz o'zida aql bilan hisni ham birlashtiradi. Shu bois uni ratsional va emotsional birlik sifatida tushuniladi. Badiiy obrazdagi ratsional jihat shuki, uning yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Badiiy obraz makon va zamonda mavjud bo'lgan konkret narsadek his etiladi. U tushuncha, tasavvur, faraz va shu kabi tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor badiiy obraz vositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi. Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan yana biri uning ko'p ma'noliligi bo'lib, bu uning metaforikligi va assotsiativligi bilan belgilanadi. Badiiy obrazga xos "metaforiklik"ni "o'xshashlik" bilangina bog'lab qo'yimaslik lozim. Ya'ni "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Badiiy obraz biz kutmagan ichki o'xshashlikni kashf etadi, natijada o'sha biz bilgan narsa-hodisa ko'z oldimizda butkul yangicha bir tarzda gavdalanadi, o'zining bizga noayon qirralarini namoyon qiladi. Mumtoz adabiyotimizda chahoriyorlar obrazining yaratilishida ham shunday yondashuvni ko'rishimiz mumkin.

Choryorlar (fors. -to'rt do'st) - Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki 4 xalifa (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usman, Ali). Choryorlar arab tilidagi diniy manbalarda "xulafo ar-roshidin" ("to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar") nomi bilan tilga olinadi. Choryorlar xalifalikni boshqarish va kengaytirish borasida rahnamolik qilganlar. Biz choryorlarni "payg'ambar noiblari" hisoblaymiz. Choryorlar hukmronlik davri islomning oltin asri deb yuritiladi. Choryorlar zamonida Payg'ambar boshlab bergan futuhotlar oxiriga yetkazilgan, davlat qurilishi mukammal bo'lgan, islom yetib borgan o'lkalarda barqarorlik o'rnatilgan.

Sahobalar (yoxud as-sahoba, sohib "arafdor" ning ko'pligi-ashob) Muhammad alayhissalomning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo'lgan yoxud g'azotlarida qatnashgan kishilar; keyinchalik Muhammad (s.a.v)ni bir marotaba, garchi go'daklik chog'ida bo'lsa ham ko'rgan barcha kishilar sahobalar deb atala boshlagan. Sahobalarning islom tarixidagi alohida ahamiyati shundaki, Muhammad (s.a.v) vafot etganlaridan so'ng, ular Rasulluloh (s.a.v)ning ta'limotlarini hammalari saqladilar, ularning Payg'ambar (a.s) so'zlari va ishlari haqidagi hikoyalari (hadislar), shuningdek, shaxsiy o'rnaklari va fikrlari islom axloqiy ta'limoti - sunnaning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etdi. Sahobalarga bo'lgan hurmat, ehtirom keyinchalik, ularning qabrlarini e'zozlashga va sahobalarning fazilatlarini haqida asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ular bilan bog'liq voqealar esa ijodkorning ijodiy niyati va asar g'oyasidan kelib chiqqan holda ta'sirchan usulda bayon etilgan.

Siddiq (arab - "chin dildan tasdiq etib ishonuvchi")-tasavvufda payg'ambarlikdan keyin turadigan eng yuqori valiylik martabasi. Bu martaba birinchi bo'lib, xalifa Abu Bakr (r.a) to'liq ismi Abu Bakr Siddiq Abdulloh ibn Abu Qahhafa ibn Omir-islomda "xulafoi roshidin", "choryorlar" deb atalgan to'rt xalifadan birinchisi. Muhammad (s.a.v)ning eng yaqin safdoshlari, Muhammad(s.a.v) da'vatlari bilan islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan. Siddiq deb atalishiga sabab shuki, "Isro va me'roj" hodisasini eng birinchi bo'lib tasdiqlagan. Muhammad (s.a.v) unga Siddiq ya'ni, imoni kuchli deb laqab berganlar. Diniy manbalarda keltirilgan mazkur voqea badiiy adabiyotga ko'chgandan so'ng obrazlilikka ham alohida e'tibor qaratilgan holda o'ziga xos usulda tasvirlangan. Misol uchun "Tarixi Muhammadiy" asarida quyidagicha tasvirlanadi:

“Bir necha sahobalar yugurganlaricha hazrat Abu Bakr qoshlariga kelishib: – Ey Abu Bakr, do‘sting Muhammad so‘zini angladingmu? Yana bir yangilik yolg‘on chiqardi. Ikki oylik yo‘l-Quddus shahriga kechani bir qismida borib keldim, deydur. Endi sen bunga ham ishona olarmisen?-dedilar. Anda Abu Bakr: – agar shu so‘zni aning aytgani rost bo‘lsa, u to‘g‘ri aytgan, albatta, unga ishonurman. Chunki yetti qat osmon ustidan, kecha kunduz soatlari ichida unga kelgan vahiy xabarlariga ishonib uni tasdiq qilurman. Endi buni nechuk tasdiq qilmaymen? – dedilar. Mana shu kundan boshlab Payg‘ambarimiz Abu Bakrga “Siddiq” laqabini qo‘ydilar”. Keying o‘rinlarda esa badiiylikning yanada kuchaytirilgan holda berilishi kitobxon qalbida mazkur qahramonga bo‘lgan muhabbatning oshishiga sabab bo‘ladi.

“Alloh taolo birovning ko‘nglini yumshoq yaratuvchi, ondaq kishining ko‘ngli sutdek oq, qaymoqdek yumshoq bo‘lur. Yana birovning ko‘nglini toshdan ham qattiqroq qilur. Abu Bakr Siddiqning ko‘ngli ham o‘tgan Payg‘ambarlardan Ibrohim Xalilohdek yumshoqdur. Payg‘ambarimizning g‘ordagi do‘sti hisoblangan ulug‘ sahobaning ko‘ngli yumshoq, ko‘zi yoshli kishidur. Payg‘ambarimiz Abu Bakr Siddiq bilan shu kuni qorong‘u kechada uning uyidan chiqib Makka atrofidagi tog‘ tomonga qarab yurdilar. Bosgan izlarini bildirmasdan oyoq uchlari ila yurar edilar. Shu yurganlaricha Savr tog‘i ichidagi g‘or o‘g‘ziga keldilar. – Yo Rasululloh, bunda ziyonli, zaharli jonivorlar bo‘lmasin, men g‘orning ichini tozalab chiqay, deb Abu Bakr Siddiq dastlab g‘orga o‘zlari kirdilar. G‘or ichini arig‘dab, teshiklariga ridolaridin yirtib tiqdilar. Bir teshikka tiqqudek narsa yetmay qoldi, ul teshikda bir zaharli ilon yotgan edi.” Ijodkor mazkur voqeani kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanitirish uchun badiiylikka katta e‘tibor qaratadi. Natijada har bir lavha o‘quvchini o‘ziga jalb etadi.

“G‘orga avval Abu Bakr Siddiq, so‘ngra Payg‘ambarimiz kirdilar. Kechasi uxlamagan, o‘zlari charchagan edilar. Muborak boshlarini Abu Bakr Siddiq tizzalariga qo‘yib uxlab qoldilar. Hazrati Abu Bakr Siddiq ochiq qolgan teshikdin biror narsa chiqib qolmasin, deb tovonlarini shu teshikka yopgan edilar, u yotgan ilon kishining isini bilib, oyoqlarin chaqib oldi. Buning alamiga chiday olmay, ko‘zlaridan yoshlari to‘kilib, ikki-uch tomchisi Payg‘ambarimizning yuzlariga tushdi. Bundan uyg‘onib ketib: – Ey Abu Bakr, bu nima ishdur? - deb so‘radilar. Ilon chaqqanligini, uning alamini aytdilar. Sōngra muborak tupuklaridin surib qo‘yib edilar, shu onda shifo topdilar.

Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy asarida “G‘or voqea”sini mana shu tarzda qayd etgan bo‘lsa, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarida quyidagicha izohlab berganlar. “U payg‘ambarlar sultoni – Muhammad alayhissalomning do‘stidir. Mushkulot g‘oridagi ikkinchi odam shu edi. Uning sidqidildan sodiq do‘sti va hamrozi, barcha yaxshi-yomon kunlarda hamdamidir. U olam eliga yo‘lboshchi edi. Chunki ham- madan ilgari kelganlardan ham ilgari bor edi. Haqiqatparastlar guruhining boshlig‘i udir va sobiq islom ahliga sodiq udir. G‘orda u do‘stiga jonini fido qilishga shay turgan, shuning uchun do‘sti uni “g‘ordagi do‘stim” degandir. Muhammad alayhissalom xazina singari g‘orda yashiringanda, u ajdahodek unga soqchilik qilgan. U g‘or zulmatida azob chekkani uchun u yerdan obihayot va xazina topdi. Bu shunday xazinaki, ilohiy g‘aznasi bilan qo‘shilgan bo‘lib jahon vayronasida yashiringandir. U obihayot topgani bois toki jahon boqiy ekan, uning nomi ham barhayot Uning oyog‘ini ilon chaqqanda, obihayot ichib uning zararini daf etdi. Payg‘ambar uni o‘z o‘rniga imom qilib qoldirdi: oy quyosh o‘rnida qoldi. Oftob botganda, din uyi uning nuridan ravshan bo‘ldi. Ey Alloh, ushbu oy nurlari to hisob-kitob kunigacha islom uyidan o‘z nurini va jilvasini olib ketmagay”. Bir voqeaning ikki ijodkor tomonidan ta‘sirchan usulda berilishini va biri ikkinchisini takrorlamasligi obrazlilikda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muhammad Mustafodan (s.a.v) keyin Abu Bakr Siddiq xalifalik taxtiga o‘tirganda, dindan qaytgan bir guruh kishilar din yo‘lida adovat qilib janjal boshladilar. Ular islom ustunlarini qulatilish maqsadida zakotni bekor qilishni talab qildilar. Bunday vaziyatda adolatli bo‘lgan Abu

Bakr Siddiq g‘azab bilan mana shu fikrlarni aytdilar: “Payg‘ambar qonunida biror ip miqdoricha narsani ham o‘zgartirish mumkin emas. Kimki bunga qarshi bosh ko‘tarsa, ularga javob qilich va o‘q bo‘ladi!”. Shariat ishiga shunchalik qat‘iyligi uchun ham uning nomi to bu zamongacha yetib kelgandir”. Chahoriyorlar obrazining mumtoz adabiyotimizda yoritilishi asarlarning ta‘sir kuchini oshirish barobarida badiiylikni ham ta‘minlagan omillardan hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek adabiyotida choryorlar obrazi ahamiyatli tarzda yoritib berilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy asarlarida Qur‘oni karim, hadislarga va undagi qissalarga ko‘p murojaat qilinganligi uchun ijodkor tasvirlayotgan voqea-hodislardagi obrazlar ta‘sirchan usulda gavdalantirilgan. tayangan holda yozgan. Shu sababli ham asarlaridagi ma‘lumotlar haqiqat asnosiga qurilgan. “Lison ut-tayr” asarida keltirilgan Abu Bakr Siddiq haqidagi “G‘or voqeasi” yaqqol misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademiya, 2013.
2. Islom ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2004
3. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2021.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik – Toshkent: Tamaddun, 2018.
5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2023.